

---

## Semantic features of vocabulary related to professions and crafts in the works of Alisher Navoi

**Axmedov Salohiddin Sahobiddin o'g'li**  
[salohiddinaxmedov19941711@gmail.com](mailto:salohiddinaxmedov19941711@gmail.com)  
Teacher,  
Kattakurgan State Pedagogical Institute

**Ruxshona Eldor qizi Bekmurodova**  
[r.bekmurodova@mail.ru](mailto:r.bekmurodova@mail.ru)  
Student,  
Kattakurgan State Pedagogical Institute

---

**Annotation** *Investigating the language of Alisher Navoi's works from a linguistic perspective is one of the major tasks of modern philology. A comprehensive and in-depth study of Navoi's literary heritage provides an opportunity to address a number of unresolved issues in linguistics. This article attempts to reveal the linguistic features of Navoi's works, with particular attention to the semantic characteristics of borrowed words used in his writings, especially the vocabulary related to professions and crafts.*

**Keywords** *Native Turkic words, Arabic borrowings, Persian-Tajik borrowings, semantic features of words, borrowed vocabulary, profession and craft terminology*

---

## Alisher Navoiy asarlarida kasb-hunarga oid so'zlarning ma'no xususiyatlari

**Axmedov Salohiddin Sahobiddin o'g'li**  
[salohiddinaxmedov19941711@gmail.com](mailto:salohiddinaxmedov19941711@gmail.com)  
O'qituvchi,  
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

**Bekmurodova Ruxshona Eldor qizi**  
[r.bekmurodova@mail.ru](mailto:r.bekmurodova@mail.ru)  
Talaba,  
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

---

**Annotatsiya** *Alisher Navoiy asarlari tilini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish asosiy vazifalardandir. Negaki, Navoiy asarlarini har tomonlama chuqur o'rganish tilshunoslikda haligacha yechilmagan muammolarni muayyan darajada hal qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada Navoiy asarlarining til xususiyatlari hamda Navoiy ijodida ishlatilgan o'zlashgan so'zlarning ma'no xususiyatlari imkon qadar ochib berishga harakat qilingan.*

**Kalit so'zlar** *Asl turkiy so'zlar, arabcha so'zlar, fors-tojikcha so'zlar, so'zlarning ma'no xususiyatlari, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar*

---

## Семантические особенности слов, обозначающих профессии и ремёсла, в произведениях Алишера Навои

**Ахмедов Салоҳиддин Саҳобиддин угли**  
[salohiddinaxmedov19941711@gmail.com](mailto:salohiddinaxmedov19941711@gmail.com)  
Преподаватель,  
Каттақурганский государственный педагогический институт

**Бекмуродова Рухшона Элдор кизи**

[r.bekmurodova@mail.ru](mailto:r.bekmurodova@mail.ru)

Студент,

Каттакурганский государственный  
педагогический институт

**Аннотация** *Исследование языка произведений Алишера Навои с лингвистической точки зрения является одной из важнейших задач современной филологии. Это обусловлено тем, что всестороннее и глубокое изучение творческого наследия Навои позволяет в определённой степени решить ряд нерешённых проблем языкознания. В данной статье предпринята попытка раскрыть языковые особенности произведений Навои, а также семантические особенности заимствованных слов, использованных в его творчестве, с особым вниманием к лексике, обозначающей профессии и ремёсла.*

**Ключевые слова** *Исконно тюркские слова, арабские заимствования, персидско-таджикские заимствования, семантические особенности слов, заимствованная лексика, названия профессий и ремёсел*

### **Kirish**

O'zbek tilshunosligida tarixiy leksikologiya va semasiologiya yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda Alisher Navoiy asarlari alohida ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi. Buyuk mutafakkir ijodi nafaqat badiiy-estetik tafakkurning yuksak namunasi, balki XV asr turkiy adabiy tilining boy lug'aviy tarkibi, grammatik tizimi hamda semantik imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan nodir til yodgorligidir. Shu bois Navoiy asarlarining leksik qatlamini ilmiy asosda o'rganish tarixiy tilshunoslik, etimologiya, semantika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi yo'nalishlarning rivojlanishida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har qanday xalqning moddiy va ma'naviy taraqqiyoti uning kasb-hunar tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Kasb-hunar nomlari nafaqat muayyan mehnat faoliyatini ifodalovchi leksik birliklar, balki jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy tabaqalanishi, madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi til

birliklari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan kasb-hunarga oid so'zlarni semantik jihatdan tadqiq etish o'sha davr jamiyatining ijtimoiy tuzilishi, ishlab chiqarish madaniyati, hunarmandchilik an'analari va davlat boshqaruvi tizimi haqida ham qimmatli ilmiy ma'lumotlar beradi.

Navoiy o'z asarlarida turli ijtimoiy qatlam vakillarini tasvirlar ekan, ularning kasbi, mashg'uloti va jamiyatdagi mavqeini ifodalovchi ko'plab leksik birliklardan mohirona foydalanadi. Shoir qo'llagan zargar, naqqosh, me'mor, tabib, attor, dehqon, kosib, savdogar, hunarmand, sipohiy, mirzo, munshiy, muallim kabi so'zlar faqat nominativ ma'noni emas, balki obrazlilik, ramziylik, metaforiklik va baholash semalarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ayrim hollarda kasb-hunar nomlari insonning axloqiy fazilatlarini, ma'naviy kamoloti yoki ruhiy holatini ifodalovchi ko'chma ma'nolarda qo'llanadi. Natijada bunday birliklar badiiy matnning poetik-estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Kasb-hunarga oid leksikaning yana bir muhim jihati uning ko'p qatlamli etimologik

tarkibidir. Navoiy asarlarida asl turkiy qatlam bilan bir qatorda arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan ko'plab kasb nomlari ham uchraydi. Ushbu birliklar tarixiy taraqqiyot davomida turkiy til tizimiga moslashib, yangi semantik qirralarni kasb etgan. Ayrim so'zlar ma'nosining kengayishi, torayishi, metaforik va metonimik rivojlanishi yoki uslubiy vazifasining o'zgarishi til taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Shu jihatdan kasb-hunar nomlarini semasiologik va etimologik nuqtai nazardan tahlil qilish tarixiy leksikologiyani dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat lug'aviy ma'nosi asosida emas, balki ularning pragmatik, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari bilan birgalikda o'rganish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa Navoiy asarlaridagi kasb-hunarga oid so'zlarni faqat nomlash vositasi sifatida emas, balki milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va madaniy xotirani aks ettiruvchi konseptual birliklar sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Zero, har bir kasb nomi ortida xalqning turmush tarzi, mehnat madaniyati, ijtimoiy munosabatlari hamda ma'naviy qarashlari mujassamlashgan.

### **Adabiyotlar tahlili**

Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Alisher Navoiy asarlarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz" (Karimov, 2008).

Shu nuqtai nazardan qaraganda, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o'rganishning yagona ilmiy yo'li birlamchi manbalarga asoslanish va yozma yodgorliklar tilini qiyoslash asosida ikki oradagi yaqinliklarni, yangiliklarni, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashdan iboratdir.

Alisher Navoiy qalamiga mansub nazmiy va nasriy asarlar ham badiiy, ham g'oyaviy-ma'naviy jihatdan yuksak saviyada bo'lganligi sababli, yaqin va uzoq mintaqalarga tez yoyildi, ilm ahlining diqqatini qozondi. Natijada, uning asarlari asosida tuzilgan qator lug'atlar va grammatikaga oid tadqiqotlar yuzaga keldi (Navoiy, 1984).

XII – XIII asrlardan XX asr boshlarigacha amalda bo'lgan eski o'zbek tili hozirgi o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan. Eski o'zbek tilida Alisher Navoiy asarlari, ijodi muhim o'rin tutganligi sababli bu davr uchun uning asarlarini asos qilib oldik. Kasb-hunar nomlarining ifodalovchi lug'aviy birliklar ko'proq -chi affiksi vositasida hosil qilingan va bu an'ana turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining barcha taraqqiyot bosqichlarida saqlanib qolgan. Fikrimizni Alisher Navoiy tomonidan fors-tojik tilida kuzatilmaydigan, o'zbek tiligagina xos bo'lgan -ch va -chi affikslari bilan mansab, hunar ma'nosidagi otlar yasalishi haqida fikr yuritilib, o'nlab dalillarni keltirilgani ham tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyning ba'zi nazmiy asarlarida uchraydigan ayrimso'zlar hamda ushbu so'zlarning ma'no xususiyatlari, qolaversa, so'zlar sinonimiyasi va qo'llanish o'rinlari aniq manbalardan olinganligi bilan xarakterlidir (Rahmonov, 1983).

### **Natijalar va Muhokama**

**Anjumshunos** – astrolog, munajjim a.-yulduzshunos, esk. Munajjimlik bilan shug'ullangan, yulduzlarga qarab fol ko'rgan kishi, astrologiya bilan shug'ullanuvchi;

Qilib hikmat ahli base iltimos,

Xususan Arastui **anjumshunos** (Saddi Iskandariy, 288b3)

**Afsonaguzor** – hikoyat aytuvchi, so'zlab beruvchi, sarguzashtlar so'zlovchi, boshdan o'tgan voqea-hodisalarni so'zlovchi;

Tujjori sayohat shoir aqolim va buldon holidan xabardor,

Ajoyibdin **afsonaguzor** va g'aroyibdin nodira guftor (Maxbubul-qulub, XIII-26)

**Afsonapardoz f.** – hikoya to'quvchi, chiroyli qilib aytib beruvchi, hikoya rivoyatlarni aytib yuruvchi;

Yana dag'l rasoilg'a qalam surubmen va makotibg'a raqam urubmenki, forsy sehrsozlar va pahlaviy **afsonapardozlar** ham anda avroq orosta va ajzo pirosta qilibdurlar (Maxbubul-qulub, XIV-121).

**Afsonasaroy** – naql qiluvchi, qayta tarjima qiluvchi, qayta hikoya qiluvchi, xalq tomonidan og'izdan og'izga o'tib yuruvchi hikoyalarni aytuvchi, hikoyachi;

**Afsonsaroyi** dardparvard,

Mundoq dedi bu fasonai dard (Layli va Majnun, 83b3).

**Bazzoz** – matofurush, do'konchi, do'kondor *a.+f.* xususiy do'konda mol sotuvchi savdogar;

Raxtki, **bazzoz** terib rang-rang,

Atlasi aflok kabi tang-tang (Hayratul-abror, 181-7).

**Bakovul** – bakovul *esk. tar.* Podshoh, xon va Ishkarboshilarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin o'zi totib ko'ruvchi mansabdor shaxs, bosh oshpaz;

...salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun mu'tabardur, andoqqi... yasovul va **bakovul** (Muhokamatul-lug'atayn, 19).

**Banno** – usta *f.* o'rgatuvchi, muallim, biror kasb hunar bilan shug'ullanuvchi, binokor, bino imorat quruvchi ishchi, usta, me'mor *a.*, binokor, imoratsoz;

Har kun ul ish ki qilsa **bannosi**,

Shah kelib aylagay tamoshosi (Sab'ai sayyor, 74-8).

**Barzagar** – dehqon *f.* katta yer egasi, zamindor, qishloq hokimi, asosiy ishi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat bo'lgan kishi, ekin ekuvchi, g'allakor *a.+f.* g'alla, don yetishtiruvchi, don yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon;

**Barzagarg'a** andin kom hosil, pushtakashg'a andin murod vosil (Mahbubul-qulub, 46).

**Barhaman** – xizmatchi, darbozabon *f. tar.* Shahar yoki xon saroyi darvozasining qorovuli yoki soqchisi;

Ko'pubon chun eshik sari qochti,

Kelibon **bahraman** eshik ochti (Sabbai sayyor, 114-9).

**Bahrpaymoy** – dengizda kezuvchi, dengiz sayohatchisi;

Adadda uch yuz ellik **bahrpaymoy**, (Farhod va Shirin, 97).

**Bovurchi** – oshpaz, bakovul *esk. tar.* Podshoh, xon va Ishkarboshilarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin o'zi totib ko'ruvchi mansabdor shaxs;

Xorun dedikim, kiymakin xazonadin yetkuray va yemakni **bovurchidan** buyuray (Maxbubul-qulub, 168)

**Bozurgon** – bozorchi, bozorda ko'p yuruvchi, bozorda savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi, bozor – o'charni yaxshi biluvchi, savdogar;

Devoniylarg'a hukm bo'lsakim, atrofdin kelgan **bozurgonlarning** jonibin rivoyat qilsalar (Munshaot, 132).

**Boni//boniy** – binokor, biror kasb hunar bilan shug'ullanuvchi binokor, bino imorat quruvchi ishchi, usta, quruvchi, imorat yasovchi;

Bo'lib me'mori qudrat anda **boni**,

Suvdin qilmay xarob andoq binoni (Munshaot, 97).

**Boshoqchi** – boshoq teruvchi, mashoqchi, bug'doyni o'rib-yig'ib olish payida, o'rimdan keyin yerga to'kilgan boshoqlarni teruvchi;

O'roqchiga andin ro'ziy, **boshoqchining** yorub andin ko'zi (Maxbubul-qulub, 46)

**Butgar** – but yasovchi usta, xoch yasovchi;

Anda butxonaning kalidi dag'l,

Butgaru butparast umidi dag'i (Sab'ai-sayyor, 87).

**Vazzon** – o'lchovchi, tarozibon *f.* taroziga qarab, uni qo'riqlab turuvchi, tarozi tortuvchi, tarozida tortish ishini bajaruvchi;

Ammo bu hisob xirali durbin **vazzoni** bila va aqli durandish mezoni bila rost ermas (Munshaot, 102.)

**Ganjur** – xazinachi *tar.* hukmdor va boshliqlarning xazinasi va b. moddiy boyliklarini saqlovchi, boshqaruvchi shaxs, xazina boshlig'i, xazina saqlovchi;

Aning oshufta holidin bu ranjdur,

Nechukkim **ganji** yag'mo topsa ranjur (Farhod va Shirin, 39).

Navoiy asarlarni har tomonlama chuqur o'rganish tilshunoslikda haligacha yechilmagan muammolarni muayyan darajada hal qilish imkonini beradi (Rahmonov, 1983). O'zbek tilshunosligida bugunga qadar mazkur asarlarning lisoniy xususiyatlariga oid monografik tadqiqot mavjud emasligi ma'lum. Shu ma'noda asarlar so'z boyligini statistik, tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik aspektlarda tadqiq qilish ayni muddaodir. Navoiy asarlarini o'rganar ekanmiz, tahlil va talqinlardan shu narsa aniq bo'ldiki, shoir ijodining hali biz bilmagan, ochilmagan, ilmiy asoslanmagan qirralari ko'p. bularni har tomonlama o'rganish galdagi vazifalarimizdan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy asarlarida kasb-hunarga oid so'zlar oddiy nominativ birliklar bo'lib qolmay, keng semantik va lingvomadaniy mazmunni o'zida mujassamlashtirgan murakkab leksik qatlamni tashkil etishini ko'rsatdi. Shoir tomonidan qo'llangan kasb nomlari o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, mehnat madaniyati, hunarmandchilik an'analari va davlat boshqaruvi tizimini aks ettirish bilan birga, insonning axloqiy qiyofasi, ma'naviy dunyosi hamda estetik idealini ifodalash vositasiga ham aylangan.

#### **Xulosa**

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Navoiy kasb-hunar nomlaridan ko'pincha ko'p ma'noli birlik sifatida foydalanadi. Ularning asosiy lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda ramziy, metaforik,

metonimik va baholovchi ma'nolari ham badiiy matnda faol namoyon bo'ladi. Bu esa shoirning til imkoniyatlaridan nihoyatda mahorat bilan foydalaniganini hamda kasb-hunarga oid leksikani badiiy obraz yaratishning muhim vositasiga aylantirganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kasb-hunarga oid leksikaning etimologik jihatdan rang-barangligi ham aniqlandi. Asl turkiy so'zlar bilan bir qatorda arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan birliklar ham Navoiy ijodida faol qo'llanib, o'zaro semantik uyg'unlik hosil qilgan. Bu hol XV asr turkiy adabiy tilining xalqaro madaniy aloqalar natijasida boyiganini hamda tilning ochiq va dinamik tizim sifatida rivojlanganini ko'rsatadi.

Kasb-hunarga oid so'zlarning semantik xususiyatlarini o'rganish nafaqat tarixiy leksikologiya, balki semasiologiya, lingvopoetika, etimologiya va lingvomadaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar tarixiy matnlarda qo'llangan leksik birliklarning ma'no taraqqiyotini aniqlash, ularning zamonaviy o'zbek tilidagi funksional davomiyligini belgilash hamda milliy til taraqqiyotining uzviy qonuniyatlarini ochib berishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlaridagi kasb-hunarga oid so'zlar xalqning mehnat madaniyati, tarixiy tafakkuri va milliy qadriyatlarini mujassamlashtirgan boy semantik tizimni tashkil etadi. Ularni chuqur lingvistik tahlil qilish nafaqat Navoiy tilining badiiy-estetik qudratini yanada to'liqroq anglash, balki o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti, lug'at boyligi va semantik rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar kelgusida tarixiy korpus lingvistikasi, raqamli leksikografiya hamda kompyuter lingvistikasi asosida Navoiy leksikasini kompleks tavsiflash uchun ham mustahkam ilmiy poydevor yaratadi.

**References:**

1. *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati* (Vol. 1). (1983). Fan.
2. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Ma'naviyat.
3. Rahmonov, V. (1983). *O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at*. O'qituvchi.
4. Rustamov, A. (1987). *So'z xususida so'z*. Yosh gvardiya.
5. Shamsiyev, P. (1968). *Alisher Navoiy. Hayoti va ijodi*. Fan.
6. *O'zbek tilining izohli lug'ati* (Vol. 1). (2006). O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.